

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни»	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I. Saminov	
Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 811.512.133; 81'42

MUHOKAMA NUTQ TIPINING TIL TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

РОЛЬ РАССУЖДЕННОГО ТИПА РЕЧИ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

THE ROLE OF THE DISCUSSION TYPE OF SPEECH IN THE LANGUAGE SYSTEM

Dadajonov Avazbek Rahmatjon o'g'li¹ ¹Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisiXojaliyev Ismoiljon Tajibayevich²²Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya

Tilning bir-biri bilan kesishgan ikkita quyi tizimi: funksional-semantik va me'yoriy-stilistik tizimlardan iborat bo'ladi. Birinchisi o'zining takrorlanuvchi barqaror tipik xususiyatlariga va o'zaro shartlanganligi bilan ajralib turadi. Me'yoriy-uslubiy quyi tizim, aksincha, u qadar barqaror belgilarga ega bo'lmaydi. Tilning bu qayd etilgan tizimli tabiati nutq uslublarini qiyosan tahlil qilinganda yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

Аннотация

Язык состоит из двух взаимосвязанных подсистем: функционально-семантической и нормативно-стилистической систем. Первый отличается повторяющимися устойчивыми типическими признаками и взаимной обусловленностью. Нормативно-методологическая подсистема, напротив, не будет иметь столь устойчивых особенностей. Эта отмеченная системность языка более отчетливо проявляется при сравнительном анализе стилей речи.

Abstract

The language consists of two interconnected subsystems: functional-semantic and normative-stylistic systems. The first is characterized by its recurring stable typical features and mutual conditioning. The normative-stylistic subsystem, on the contrary, does not have such stable features. This noted systemic nature of the language is more clearly manifested in a comparative analysis of speech styles.

Kalit so'zlar: muhokama nutqi, til sistemasi, til tizimi, quyi tizim, me'yoriy-uslubiy, me'yoriy-stilistik, nutqiy tizim.

Ключевые слова: дискуссионная речь, языковая система, языковая система, подсистема, нормативно-стилистическая, нормативно-стилистическая, речевая система.

Key words: discussion speech, language system, language system, subsystem, normative-methodical, normative-stylistic, speech system.

KIRISH

Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rmini aniqlash uchun, avvalo, tizim (sistema) o'zi nima, uni tilga qanday aloqasi bor, til birliklarining o'zoro munosabatlari sistem talablarga javob beradimi, ayniqsa, u nutqiy sathda bo'lsa, degan savollarga javob berish zaruriyati yuzaga chiqadi. Chunki tilning o'zi bir butun holda makrosistemani tashkil etadi. Shu jihatdan u mohiyat hisoblanadi. "Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zoro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi. Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir"⁶⁸.

Bu maqolada muhokama nutqining til sistemasidagi o'rni, nutq tizimidagi ahamiyati o'rganib chiqiladi.

⁶⁸ Неъматов Х.Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1995, 7-бет.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Matn lingvistikasi bugungi tilshunoslikning eng keng o'rganilayotgan yo'nalishlaridan. Bu sohani o'rganishda qiyosiy-tahliliy metodlar muhim sanaladi. Muhokama matni til sitemasidagi'ni ham shunday tahlillarga asoslanib tadqiq qilingan. Nurmonov, Nematov, Usmonov va boshqa tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari chog'ishtirilgan.

Matnning nazariy muammolarini aniqlashda va ularning nutqiy xususiyatlarini ko'rsatib berishda tavsifiy, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rinib turibdiki, til mohiyat bo'lsa, nutq hodisadir. Shunday ekan muhokama nutq maxsuli sifatida til tizimida qanday o'rin tutadi? Bu savolga javob berish uchun sistema tushunchasining o'ziga oydinlik kiritish, uning ishlash mexanizmlarini aniqlab olish va bu boradagi qarashlarni nutq mahsuli bo'lgan muhokama bilan bog'liq jihatlariga tadbiq qilish zaruriyati yuzaga keladi.

Sistema izohli lug'atlarda, "(yun. systema – yaxlit; qismlardan tarkib topgan) Ish-harakat, turli jarayon va sh.k.larda qismlarning o'zaro joylashishi va bog'liqligidagi tartibot, tizim; qonuniy tartibda joylash-gan va o'zaro uzviy bog'langan qismlardan, elementlardan tashkil topgan butunlik"⁶⁹ hisoblanadi, deb izohlansa, tarjima lug'atlarida "system – tizim, tuzum sifatida beriladi"⁷⁰. Falsafa lug'atlarida esa "Sistema (yunoncha – sustema – qismlardan tashkil topgan, qo'shilgan) – yaxlit bir butunlik sifatida tashkil topgan ob'yektni ifodalovchi falsafiy kategoriya"⁷¹, deb ta'riflanadi.

Ma'lumki, til belgilar sistemasidan iborat bo'lib, ayni vaqtda u ijtimoiy hodisa hamdir. Chunki "til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsda emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi"⁷². Shuning uchun tilshunoslar "til o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan sistemadir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda bo'lgan ikki element (yoki birlik) dan tashkil topgan"⁷³, deb ta'riflaydilar. Buning sababi "tilning o'z sistemasi bor. Til o'zoro shartlangan ishora sistemasidir"⁷⁴.

Ko'rinib turibdiki, tilning sistemalik tabiati o'ta murakkab hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday sistema murakkab tuzilishga ega bo'ladi. Jumladan, "har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Demak, sistema muayyan ichki tuzilishga ega bo'lib, ikki va undan ortiq qismlarning o'zoro munosabatidan tashkil topadi.

Sistemaning ikkinchi jihati shundan iboratki, sistemani tashkil etgan uzvlar o'zoro shartlangan bir-birini taqozo etuvchi ko'p pog'onali munosabatda bo'ladi.

Sistemaning uchinchi jihati shundaki, har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatnga ega bo'lgani tufayli sistemani tashkil etgan qismlar bilan sistema o'rtasida ham munosabat bo'ladi.

Sistemaning to'rtinchi jihati ichki tuzilishining pog'onaviyligidir. Ya'ni butun va bo'laklik, tur va jinslik munosabati nisbiy xarakterga ega. Ma'lum jinslarga nisbatan tur, bo'laklarga nisbatan butun bo'lgan qism boshqa butun yoki tur tarkibiga kirib bo'lak yoki jins bo'lishi mumkin.

"Sistemaning beshinchi jihati substansionalligidir. Ya'ni substansiya va uni bevosita kuzatishda tazohirlar orqali voqelanishi, umumiylik – xususiylik, mohiyat – hodisa, imkoniyat – voqelik dialektikasining o'zida namoyon etishidir. Shunday qilib, bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik sistema sanaladi"⁷⁵. Sistema va til sistemasi borasidagi barcha fikrlarda uning eng kamida ikki elementdan tashkil topishi, yaxlitligi, o'zoro shartlanganligi, sistemani tashkil etuvchilar o'zoro pog'onaviy munosabatga ega ekanligi, uni tashkil etuvchilar bilan sistemaning o'zoro munosabatchiligi kabi belgilari keltiriladi.

Til belgilar tizimi bo'lib, uning bu tabiati tilni o'ta murakkab tizim sifatida namoyon bo'lishini

⁶⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati, JK. IV. O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022, 668-bet.

⁷⁰ English-Uzbek Uzbek-english Diktionaru – Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at/ Xolmurodov A.A., Azizov R.X. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007, 182-bet.

⁷¹ Фалсафа қомусий луғат, – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти», 2004. – Б. 370.

⁷² Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик, –Тошкент: «Ўқитувчи», 1979, – Б. 5.

⁷³ Усмонов С. Умумий тилшунослик, –Тошкент: «Ўқитувчи», 1972, – Б. 125.

⁷⁴ Усмонов С. Умумий тилшунослик, –Тошкент: «Ўқитувчи», 1972, – Б. 92.

⁷⁵ Нурмонов А. Таналанган асарлар, III жилдлик, I жилд//Тилшуносликнинг бошқа фанлар билан муносабати, – Тошкент: Академнашр, 2012, – Б. 123-124.

TILSHUNOSLIK

ko'rsatadi. "Sistemaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan har qanday lisoniy belgi ikki xil xususiyatga ega. Ularning birinchisi mutlaq xususiyat bo'lib, tizimga kiringunga qadar ham lisoniy belgida mavjud bo'ladi. Bu xususiyatlar bevosita kuzatish bosqichida: shu belgining o'ziga mansub fizik-fiziologik xossasida ko'rinib turadi. Lisoniy belgining ikkinchi xususiyati esa faqat sistemada bir lisoniy belgining ikkinchi lisoniy belgiga munosabati orqali aniqlanadi"⁷⁶. Masalan, agar fonetik-fonologik belgilar mutlaq xususiyatlarga egaligi bilan xoslansa, nutq tiplarida til belgilari "faqat sistemada bir lisoniy belgining ikkinchi lisoniy belgiga munosabati orqali aniqlanadi"⁷⁷.

Funksional-mazmuniy nutq tiplarida esa turli sath birliklari o'zoro sintagmatik, semantik hamda kognitiv munosabatga kirishadi. Chunki til bir tizim bo'lishi bilan birga u ikkinchi bir tizim bilan o'zoro munosabatchilik bo'ladi. Chunki tilning reallashishi o'z-o'zicha bo'lmay, u inson omili asosida reallashadi. Bu jarayonda sistemalararo munosabat yuzaga keladi.

Til ochiq tizim bo'lib, u tizimsiz taassurot qoldiradi. Tilning turli darajadagi tizimli tashkil etilishining qattiqligi har xil"⁷⁸ bo'ladi. Chunki tilning belgilik tabiati "boshqa belgilar bilan majburiy munosabatda belgining mavjudligi"⁷⁹ ni ko'rsatadi.

Nutq sistemasi til tizimining reallashuvi asosida shakllanadi. Ya'ni til tizimining yashash shakli nutq hisoblanadi. Bu tizimlilik quyidagilardan iborat bo'ladi: nutq o'zining funksional-mazmuniy funksiyasiga ko'ra xabar berishga xoslangan va xabar berishga xoslanmagan nutq turlariga bo'linadi. Xabar berishga xoslangan nutq – bu tasvir, rivoya, muhokama va aralash nutq shaklidagi monologik nutq tiplari hisoblanadi. Xabar berishga xoslanmagan nutq esa savol va buyruq shaklida bo'lib, ular ham o'zining ichki mazmuniga ko'ra monologik nutqdirlar. Biroq ular tipologik belgilarga ega bo'lmaydi. Har bir ifodada o'zgacha shakllanadi. Bularning birinchisi tilning funksional-mazmuniy tiplarini tashkil etadi. Bu esa uning sistemaviylik tabiatidan kelib chiqadi. Monologik nutqning funksional-mazmuniy tiplari ost tizim sifatida me'yoriy-uslubiy qatlamlar bilan to'ldiriladi va o'zining me'yoriy-uslubiy qo'llanish tizimini shakllantiradi.

Har bir funksional-mazmuniy nutq tipi ma'lum bir funksional uslubda qo'llanadi. Masalan, kitobiy uslubda, umumxalq so'zlashuv uslubida. Chunki monologik nutq tiplari – tasvir, rivoya hamda muhokama kabi tipik belgilarga ega bo'lgan nutq shakllari har bir uslubda qo'llanganda uslubiy me'yor talabiga javob beradi hamda, o'z navbatida, tipologik xususiyatlarini ham saqlaydi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, funksional mazmuniy tizim alohida, uslubiy-me'yoriy tizim alohida bo'lib, har ikki tizim ham o'ziga xos xususiyatlari bilan mustaqil tizim sifatida mavjud bo'ladi. Ularning tizim sifatidagi belgilari bir-biridan keskin farq qiladi. Biroq ular quyi tizim sifatida til tizimining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Bu, birinchi galda, ularni tizim sifatida yuzaga kelishi, mavjudligi tilning belgilar tizimiga asoslanadi. Til birliklarining sintagmatik munosabatlari asosida shakllanadi.

XULOSA

Funksional-mazmuniy quyi tizim hamda me'yoriy-stilistik quyi tizim alohida, bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'la olmasligining sababi nutqning bu ikki quyi tizimi faqat bir-biri bilan kesishgan holda, umumiy til tizimini tashkil qiladi.

Tilning bir-biri bilan kesishgan ikkita quyi tizimi: funksional-semantik va me'yoriy-stilistik tizimlardan birinchisi o'zining takrorlanuvchi barqaror tipik xususiyatlariga va o'zoro shartlanganligi bilan ajralib turadi, chunki u nutqning mantiqiy asosi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Me'yoriy-uslubiy quyi tizim, aksincha, u qadar barqaror belgilarga ega bo'lmaydi. Chunki uning tipologik belgilaridan ko'ra individual xususiyatlari kuchli namoyon bo'ladi. Tilning bu qayd etilgan tizimli tabiati nutq uslublarini qiyosan tahlil qilinganda yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

⁷⁶ Нурмонов А. Таналанган асарлар, III жилдлик, III жилд//Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари, –Тошкент: Академнашр, 2012, – Б. 48.

⁷⁷ Нурмонов А. Таналанган асарлар, III жилдлик, III жилд//Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари, –Тошкент: Академнашр, 2012, – Б. 48.

⁷⁸ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. – С. 328.

⁷⁹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. – С. 328.

1. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010.
2. Нурмонов А. Таналанган асарлар, III жилдлик, III жилд//Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари, –Тошкент: Академнашр, 2012.
3. Усмонов С. Умумий тилшунослик, –Тошкент: «Ўқитувчи», 1972.
4. Неъматов Ҳ.Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалри учун қўлланма. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1995.
5. Khojalyev, I. (2021). Methodology And Significance Of Meaning In Translation Of Uz
6. Kuldashv, N., Parviz, A., & Avazbek, D. (2022). Fazli Namangani's " Collection Poet " Review Zullisonayn Issue. *Spanish Journal of Innovation oath Integrity*, 6, 429-433.
7. Khojalyev, I., & Dadajonov, A. (2021). On the characteristic of the discussion to the style of speech. *Studenchesky vestnik*, (19-11), 15-16.
8. Dadajonov, AR, & Hojalyev, IT (2021). Discussion your speech to himself special features . *Studenchesky newspaper* .
9. Koldoshev, N., Avazbek, D., & Parviz, A. (2022). Language and speech purity about of our ancestors thoughts _ *International in communication ethics and diversity magazine* , 2 (4), 10-16.
10. Hojalyev, I. T. (2021). Distinctive features of discussion speech. *Studenchesky Vestnik* , (7-3), 93-95.
11. DADAJONOV, A. (2021). Concerning the lexical-semantic features of discussion speech. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Uchrediteli: Teoreticheskaya i prikladnaya nauka* , 12 , 378-382.
12. Dadajonov, A. (2023). About monological types of speech. *Modern science and studies* , 2 (6), 1236-1239.
13. Ahmadjanov, I. (2023). Semantic and stylistic characteristics of grammatical number form. *Modern science and studies* , 2 (6), 1093-1098.
14. Dadajonov, A. (2024). Munozaka nutqi va uning o'rnishi. *Tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha xalqaro ko'p tarmoqli jurnal* , 11 (01).
15. Dadajonov, A. (2024). Nutqdagi muhokama so'z turlari. *Tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha xalqaro ko'p tarmoqli jurnal* , 11 (01).